

Iqtisodiy Rivojlanish Jarayonida Axborot Texnologiyalari Va Axborotning O'Rni

Tursunboyev Erkinjon To'lqin o'g'li¹, Pulatova Gulchexra²

Rezume: Ushbu maqolada iqtisodiy rivojlanish jarayonida axborot texnologiyalarining roli, ularning sanoat rivojlanishiga ta'siri, bilim va ma'lumotlar turlari ko'rib chiqiladi, shuningdek, yangi texnologiyalarning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy rivojlanish, axborot texnologiyalari, iqtisodiyotdagi bilimlar, iqtisodiyotdagi ma'lumotlar.

Hozirgi kunda bilim va malaka mintaqa iqtisodiyoti rivojlantirishning asosiy mexanizmi bo'lib, u o'z navbatida yangi axborot texnologiyalari va bilimlarni asosiy resurs sifatida qo'llashga asoslanadi. An'anaviy iqtisodiyotda asosiy resurs yer, mehnat va, albatta, boshlang'ich kapital hisoblansa, hozirgi iqtisodiyotda bilim va innovatsion texnologiyalar iqtisodiy o'sishning eng muhim harakatlantiruvchi omiliga aylandi. Bilim va malaka kompaniyalarga yangi mahsulot va xizmatlar yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilash, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va boshqaruvni yaxshilashga yordam beradi. Bilim, shuningdek, kompaniyalarga yangi bozorlarni topishga va bozorda raqobatlashishga yordam beradi. Bugungi iqtisodiyotda bilim va malaka, shuningdek, shaxsiy muvaffaqiyat va ishdan qoniqish uchun asosiy manba bo'lib hisoblanadi [1, 3]. Axborot texnologiyalari va boshqa sohalarida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar oson ish topishlari, yuqori maosh olishlari, kasbiy va shaxsiy o'sish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lishlari mumkin. Iqtisodiy bilim quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Texnologik bilim- bu tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar haqidagi bilimdir.
2. Marketing bilimi - bu kompaniyalarga mahsulot va marketing strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradigan iste'molchi va bozor bilimidir.
3. Kompyuter bilimi - bu bugungi iqtisodiy sharoitida ishlash uchun zarur bo'lgan kompyuterlar, dasturiy ta'minot va axborot texnologiyalari haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi.
4. Analitik bilim – kompaniyalarga ma'lumotlar asosida asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beruvchi ma'lumotlarni tahlil qilish usullari va vositalari haqidagi bilimdir.

Zamonaviy iqtisodiyotda fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kompaniya va tashkilotlar sezilarli raqobat ustunligiga ega. Zamonaviy jamiyat shakllanishining asosiy global tendentsiyasi - bu resurs va sanoat iqtisodiyotidan intellektual resurslar, yuqori texnologiyali va axborot texnologiyalariga asoslangan "yangicha iqtisodiyot" ga o'tishdir [2, b. 1].

Bugungi iqtisodiyot yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar va raqamlashtirishga asoslangan iqtisodiyotdir. U xomashyo qazib olish va ularni xorijga eksport qilishga asoslangan oldingi iqtisodiyotdan farq qiladi. Bugungi kun iqtisodiyoti quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: Innovatsion faollikning o'sishi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, kichik va o'rta biznesning kengayishi, yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportining rivojlanishi, infratuzilmaning rivojlanishi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi huzuridagi Fiskal Instituti talabasi

² Ilmiy rahbar,

O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi huzuridagi Fiskal Instituti «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasida dostoni, PhD



Umuman olganda, bugungi kun iqtisodiyoti innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar va raqamlashtirishga asoslangan raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan.

Jahon mamlakatlarining yangi iqtisodiyoti an'anaviy iqtisodiyotdan axborot texnologiyalarining rolini oshirish, ishlab chiqarish va boshqaruv samaradorligini oshirish, shuningdek, innovatsiya va rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish bilan farqlanadi.

Axborot va bilimlar iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy o'rin tutuvchi omillar bo'lib, ular yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish va rivojlantirish, shuningdek, korxonalar samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun asosdir. IT, moliya, marketing va ommaviy axborot vositalari kabi ko'plab sohalar muvaffaqiyati axborot va bilimga uzviy bog'liqdir. Masalan, IT sohasida dasturiy ta'minot va tizimlarni ishlab chiquvchilar eng so'nggi texnologiya tendensiyalaridan xabardor bo'lishlari va ushbu soha bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlarini taqazo etadi.

Iqtisodiyotda axborot - bu biznes va moliya sohasida qarorlar qabul qilish uchun foydalaniladigan ma'lumotlar tizimidir. Uni turli manbalardan, jumladan, moliyaviy hisobotlar, mijozlar sharhlari, bozor tahlillari orqali olish mumkin. Ma'lumotlarning quyidagi bir necha turlari mavjud:

1. Moliyaviy ma'lumot - bu kompaniyaning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlari bo'lib, tadbirkorlarga kompaniyaning moliyaviy holatini baholash va uni yanada rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda yordam beradi.
2. Bozor ma'lumotlari - bu kompaniya faoliyat yuritayotgan bozor haqidagi ma'lumotlar majmuidir. U raqobatchilar, tovarlar va xizmatlar narxlari, bozordagi talab va taklif, bozor muhitini tahlil qilish va bozor qanday ishlashini va biznesni rivojlantirish uchun qanday imkoniyatlar mavjudligini tushunishga yordam beradigan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.
3. Marketing ma'lumot i - bu kompaniyaga marketing strategiyalarini ishlab chiqish, mahsulot va xizmatlarini ilgari surishda yordam beradigan iste'molchi va bozor haqidagi ma'lumotlar paketidir.
4. Ishlab chiqarish ma'lumotlari - bu kompaniyaning ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq ma'lumotlar bo'lib, u ishlab chiqarish texnologiyalari, mahsulot sifati, ishlab chiqarish xarajatlari, etkazib berish muddatlari va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Axborot ko'p jihatlarga ta'sir qilishi mumkin, masalan:

- Qaror qabul qilish - axborot iqtisodiy masalalarda ko'proq asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Masalan, kompaniyalar bozor ma'lumotlaridan qanday mahsulot ishlab chiqarish va qanday narxlarni belgilash uchun foydalanadilar.
- Ishlab chiqarish - ishlab chiqarish jarayonlari, xom ashyo va texnologiyalar haqidagi ma'lumotlar ishlab chiqarish sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.
- Raqobat - kompaniyalarga yanada samarali marketing va sotish strategiyalarini ishlab chiqishga hamda mahsulot va xizmatlari sifatini oshirishga yordam beradi.
- Iste'mol- mahsulotlar va xizmatlar haqidagi ma'lumotlar iste'molchilarga ko'proq ma'lumotli xarid tanlashda yordam beradi va ularga eng yaxshi sifat va narxga ega mahsulotlarni tanlash imkonini beradi.

Umuman olganda, axborot iqtisodiyotning asosiy resursi bo'lib, u bozor iqtisodiyoti samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish jozki hozirgi bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida axborot yangi biznes modellarini yaratish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, boshqaruv va qarorlar qabul qilish jarayonlarini takomillashtirishda foydalaniladigan qimmatli resursga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Krylov D.A. Rol' informatsii i znaniy v «novoy» ekonomike: Rossiya i strany mira // Studencheskiy: elektron. nauchn. zhurn. 2023. № 18(230).



2. Kudryavtseva S.S. Novaya ekonomika: global'nyye tendentsii i perspektivy Rossii [elektronnyy resurs] URL: <https://conf.hse.ru/data/893/314/1234/70.pdf>
3. Mordvinov G.A., Rakhno I.V., Chulkov M.D. [i dr.] Kollaboratsiya v sovremennoy ekonomike // Aktual'nyye voprosy ekonomicheskikh nauk i sovremennogo menedzhmenta: sb. st. po mater. LXX mezhdunar. nauch.-prakt. konf. № 5(54). – Novosibirsk: SibAK, 2023. – S. 19-25.

